

**"FRANSUZ TILINI ÖQITISHDA ZAMONAVIY METODLAR "**

**Abdurazzoqova Kamola Dilshod qizi**

*Özbekiston davlat Juhon tillari universiteti "Roman-German filologiyasi"  
fakulteti Fransuz tili yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola fransuz tilini öqitish metodikasi haqida , chet tili öqitish metodikasida qöllanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish xususida sòz boradi.*

**Аннотация :** В данной статье речь идет о методике преподавания французского языка, видах современных методов, используемых в методике преподавания иностранного языка, и их использовании.

**Annotation :** This article is about the methodology of teaching the French language, the types of modern methods used in the methodology of foreign language teaching and their use.

**Kalit so'zlar:** *chet tili , metodika , metod , kònïkma , malaka, aqliy hujum metodi , davra suhbati metodi.*

**Ключевые слова :** *иностранный язык, методология, метод, наука, квалификация, метод мозгового штурма, метод круглой дискуссии.*

**Keywords :** *foreign language, methodology, method, science, qualification, brainstorming method, round discussion method.*

**KIRISH :**

Bugungi kunda chet tillarini örganish zamon talabi hisoblanadi . Til o'rganiш kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'l mish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonomizda tillami bilish, ayniqsa, ko'p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Kundan -kunga zamonaviy metodlar rivojlanib bormoqda. Ayniqsa chet tillarini örganishda zamonaviy metodlarning roli katta.

Metodika tushunchasi yurtimizda ilmiy doirada keng qöllanib kelinadi. Bundan tashqari u bilan yonma-yon usul, uslub kabi özbekcha sòz muqobilari ham ishlatiladi. Bizning nazarimizda ilmiy doirada xalqaro sòz bòlgan Metodika atamasi qöllangani maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan qarashlarimizda metodika sòzidan foydalanamiz. Metodika sòzinining asosini metod sòzi tashkil qiladi.

Metod sòzi yunoncha sòzdan olingan bòlib "metodos " -"bilish yoli yoki tadqiqot yoli , nazariyasi , ta'limot " degan ma'nolarni anglatadi Metod —

voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usulidir. Metod tushunchasining falsafiy ma'nosi hodisalami kuzatish va ularni ilmiy jihatdan tasnif qilish bo'lsa, uning didaktika o'rganadigan tomoni talabani bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish va ulami amaliyotda qo'llash demakdir. Pedagogika fanlari doktori, metodist-olim A.Q.G'ulomov ta'lim metodlarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

1. O 'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar: — bilimlami tayyor holda bayon etish metodi; — bilimlami suhbat vositasida bayon qilish metodi; — bilimlami muammoli yo'l bilan bayon qilish metodi. 2. Talaba faoliyati bilan bog'liq metodlar: — reproduktiv (tayyor o 'quv materiali bilan ishslash) metod; — qisman izlanuvchanlik; — izlanishga asoslangan metodlaiga bo'lish mumkin.

### **ASOSIY QISM :**

Chet tillarini , shu jumladan , fransuz tilini ham òqitishda maqsadga kòra turli metodlar asosida dars jarayonlari olib boriladi. Òqituvchining metod salohiyati qancha yuqori bòlsa, ya'ni maqsadni tòg'ri qøyib, unga mos metodni qöllay olsa, dars maqsadi albatta amalga oshadi va òquvchilar darsda òrgangan bilimlaridan, unda orttirgan yangi kònikma va malakalardan mamnun bòladilar. Chet tilini òqitish va òorganish uchun kòp soatli dars jarayonida òqituvchi va òquvchilar minglab maqsadli jarayonlarni amalga oshirishi zarur bòladi. Demak, òqituvchi va òquvchi minglab metodlarni bilsa, qöllay olsa, oldiga qòygan maqsadiga oson va muvaffaqiyatl erisha oladi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchining to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Til tajribasi termini Yevropa tillarida chop etilgan metodik adabiyotlarda deyarli uchramaydi, chunki rus (Rossiya Federatsiyasi nazarda tutiladi), ingliz, nemis, fransuz maktablarida yagona ona tili chet til o'rganishda hisobga olinadi. O 'zbekiston maktablarida esa ona tili va ikkinchi tildan hamda o'iganilayotgan chet tilning o'zidan to'plangan yaxlit til tajribasi xususida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy metodlarga misollar :

### **AQLIY HUJUM METODI:**

Bu metod biror bir mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qöllaniladi. Mazkur metod òquvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishga undaydi. "Aqliy hujum " metodi yordamida qøyilgan muammo yuzasidan bir necha yechimlarni topish imkoniyati yuzaga keladi . "Aqliy hujum " metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1.Berilgan muammo yuzasidan òquvchilarning atroflicha va chuqur mulohazalar yuritishga undash va shunga erishish.

2. Öquvchilarning fikri va ǵoyalarini raǵbatlantirib borish ,tanqid ostiga olmaslik va ularning erkin fikrlashiga sharoit yaratish.

3.Har bir öquvchi fikrlariga va ǵoyalariga asoslanishi mumkin , ularni özgartirishi mumkin.

4..Öquvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar va ǵoyalarni baholamaslik.

Bunday yollar tutilsa , ya'ni fikrlar baholansa , öquvchilar fikrlashdan tòxtab qolishi mumkin .

"Aqliy hujum " metodi asosida tashkil qilingan mashǵulotlar quyidagi tartibda ötkaziladi . Muammo aniqlanadi va öquvchilarning muammo yuzasidan fikrlari yozuv taxtasiga yoki varaqlarga yozib boriladi . Bildirilayotgan ǵoyalarning muallifi tomonidan asoslاب berishga erishiladi.

Bu metod öquvchilarni fikrlashga , darsda faol ishtirokchi bòlishga , hozirjavob va mulohazali bòlishga òrgatadi.

### **DAVRA SUHBATI METODI :**

"Davra suhbati " metodi - aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan öz fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan òqish metodidir.[Yoldoshev J.G' ; Usmonov S.2004].

"Davra suhbati" metodi qöllanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak . Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan "kòz aloqasi" ni òrnatib tuishga yordam beradi. Davra suhbatining òğzaki va yozma shakllari mavjud. Oğzaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bòyicha öz fikr-mulohazalarini bildirishni sòraydi va aylana bòylab har bir ta'lim oluvchi öz fikr-mulohazalarini oğzaki bayon etadilar. Sòzlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi , agar muhokama qilish lozim bòlsa , barcha fikr-mulohazalar tinglanib bòlingandan sòng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Davra stolining tuzilmasi :

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib , har bir ta'lim oluvchiga konvert qoǵoz beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bòyicha öz savolini beradi va "Javob varaqasi" ning biriga öz javobini yozib konvert ichiga soladi va belgilar qøyadi.

Belgilar : 1-ta'lim oluvchilar 2-aylana stol solib qøyadi.Shundan sòng konvertni soat yònaliishi bòyicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatad .Konvertni olgan ta'lim oluvchi öz javobini "Javoblar varaqasi " ning biriga yozib , konvert ichiga solib qøyadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi .Barcha konvertlar aylana bòylab harakatlanadi . Yakuniy qismda barcha konvertlar yiǵib olinib , tahlil qilinadi .

Xulosa qilib aytganda , òqituvchi qancha kòp metod bilsa , uning darsi zerkarsiz ötadi . Yuqoridagi metodlar orqali esa , ta'lim oluvchilar berilgan mavzu yuzasidan òzlarining fikrlarini qisqa , londa va aniq ifoda eta oladilar. Bu metodlar yordamida talaba va òquvchilarning dunyo qarashlari kengayadi va fikrlash doiralari òsadi. Bundan tashqari , ushbu metodlar orqali ta'lim oluvchilarning muayyan mavzu bøyicha baholash imkoni yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar òzlari bergen savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergen javoblarni baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'yektiv baholashi mumkin .

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

- 1.J.Jalolov " Chet tili òqitish metodikasi ".(2012).
- 2.<https://wikpendiya>.
- 3.<https://sultonov.wordpress.com>.
- 4.B.Tòxliyev , M .Shamsiyeva , T.Ziyodova ."Özbek tili òqitish metodikasi " (2006).